



## NAVOY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**Navoiy viloyatida  
kichik tadbirkorlik**  
**2022- yil yanvar-sentabr**

Dastlabki ma'lumotlar




# Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik


Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi, % da



2020- yil



2021- yil




2022- yil

2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YAHM**dagi ulushi **25,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1 000** aholiga **21,2** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-sentabrida **3 244** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **21,5** foizga kam demakdir.

**2022- yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **1013** ta, sanoatda **775** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **575** ta, yashash va ovqatlanishda **192** ta, qurilishda **141** ta, tashish va saqlashda **99** ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



**2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 98,4



Sanoat 6,7



Qurilish 78,6



Investitsiya 40,1



Savdo 84,2



Xizmatlar 58,0



Eksport 7,3



Import 39,5



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


**22 296**

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

**3 244**

**2022- yilning yanvar-sentabrida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

**Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da**



■ 2021- y.

■ 2022- y.

■ (+/-)

# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar



2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar , % da

Savdo

38,2 %



Sanoat

17,5 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

13,1 %



Qurilish

7,9 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

6,7%



Tashish va saqlash

3,5 %



Axborot va aloqa

1,2 %




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,3 %




Boshqa faoliyat turlari

10,6 %



1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



2021- y.

2022- y.

Столбец1

(+/-)

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar



## Hududlar bo'yicha yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda


Navoiy sh.	680	509	Uchquduq t.	401	289
Karmana t.	521	380	Tomdi t.	174	122
Qiziltepa t.	482	462	Konimex t.	213	183
Navbahor t.	449	339	G'ozg'on sh.	105	82
Xatirchi t.	540	389			
Zarafshon sh.	333	284			
Nurota t.	211	205			

■ 2021- y. yanvar-sentabr

■ 2022- y. yanvar-sentabr

2022- yil yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Navoiy shahri – 15,7 %, Qiziltepa tumani - 14,2%, Xatirchi tumani – 12,0 %, Karmana tumani – 11,7 %, Navbahor tumani – 10,5 %, Uchquduq tumani – 8,9 %, Zarafshon shahri - 8,8 % hissalariga to'g'ri keldi.





# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




Ma'lumot uchun: 2022- yil yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda  
1 013 ta

Sanoatda  
775 ta

Qishloq,  
o'rmon va  
baliqchilik  
xo'jaligida  
575 ta

Yashash va  
ovqatlanish  
bo'yicha xiz  
matlar  
192 ta



# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 21,2 birlikni tashkil etdi.




Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 1-oktabr holatiga ko'ra\*



2022-yilning 1- oktabr holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*

2022-yilning 1- oktabr holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Tomdi tumanida 35,4 birlik, G'ozg'on shahrida 34,6 birlik, Navoiy shahrida 31,7 birlik, Karmana tumanida 26,6 birlik, Konimex tumanida 23,6 birlik, Uchquduq tumanida 23,3 birlikni tashkil etgan.



\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlар bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Tomdi tumanida 35,4 birlik, G'ozg'on shahrida 34,6 birlik, Navoiy shahrida 31,7 birlik, Karmana tumanida 26,6 birlik, Konimex tumanida 23,6 birlik, Uchquduq tumanida 23,3 birlik, Navbahor tumanida 20,1 birlik, Zarafshon shahrida 19,1 birlik, Qiziltepa tumanida esa 19,0 birlikni tashkil etdi.


**Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda),  
2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra\***

**Eng yuqori ko'rsatkich  
Tomdi tumanida – 35,4 birlik.**

**O'rtacha ko'rsatkich  
Uchquduq tumani  
- 23,3 birlik.**

**Past ko'rsatkich  
Xatirchi tumani  
- 12,6 birlik.**

**2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda \***




\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti


2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 32,5 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 7,3 % ni tashkil etdi.



Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi




**2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da**



2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Konimex, Nurota va Tomdi tumanlariida – 100,0 %, Zarafshon shahri va Uchquduq tumanida– 99,1 %, Xatirchi tumanida – 62,1 %, G'ozg'on shahrida, 24,2 %, Qiziltepa tumanida – 16,5 %, Karmana tumanida – 13,9 % va Navbahor tumanida -9,6 % ni, eng past ko'satkich Navoiy shahrida – 1,5 % ni tashkil etdi.



## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi G'ozg'on shahrida, Nurota, Tomdi va Uchquduq tumanlarida - 100,0%, Zarafshon shahrida – 98,9 %, Xatirchi tumanida – 95,2 %, Qiziltepa tumanida – 49,8 %, Karmana tumanida – 39,1 %, Navoiy shahrida – 30,8 % ni tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich Navbahor tumanida – 25,0 % ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **162,6** million AQSH dollarini yoki umumiy importning **39,5 %** ni tashkil etdi.




2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Karmana tumanida (1158,6 mlrd. so'm), Navoiy shahrida (915,9 mlrd. so'm), Qiziltepa tumanida (487,0 mlrd. so'm), Xatirchi tumanida (425,6 mlrd. so'm) va Zarafshon shahrida (300,9 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi. Tomdi tumanida (34,9 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi



2022- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **6,7 %** ni tashkil etdi.


## 2022- yil yanvar-sentabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Nurota, Tomdi va Uchquduq tumanlarida (100,0 %), Xatirchi (99,6 %), Zarafshon shahri (99,1 %), G'ozg'on shahri (67,4%), Navbahor tumani (48,5 %), Qiziltepa tumani (45,3 %), Konimex (36,6 %), Karmana tumani (19,1 %) tashkil etdi. Navoiy shahrida (1,7 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati



Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi


2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **6 946,0** mlrd. so'mni yoki umumiylaychakana savdo tovar aylanmasining **84,2 %**ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **110,6 %**ni tashkil qildi.

### 2022- yilning yanvar- sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Navoiy shahri (**1 575,2** mlrd. so'm), Karmana (**1405,5** mlrd. so'm), Qiziltepa (**896,8** mlrd. so'm), Xatirchi (**890,5** mlrd. so'm), Zarafshon shahri (**753,4** mlrd. so'm), Navbahor (**409,2** mlrd. so'm), Uchquduq (**379,4** mlrd. so'm), shahar va tumanlar hissasiga to'g'ri keldi.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Navoiy (804,4 mlrd. so'm), Qiziltepa (521,4 mlrd. so'm), Zarafshon shahri (431,6 mlrd. so'm), Qiziltepa (167,6 mlrd. so'm), Karmana (97,5 mlrd. so'm), Xatirchi (71,5 mlrd. so'm), Navbahor (56,8 mlrd. so'm) hamda Nurota (50,7 mlrd. so'm) shahar va tumanlarda qayd etildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 3 426,9 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **78,6 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **112,4 %** ni tashkil qildi.



## 2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati






## Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlarda ulushi



2020- y.



2021- y.




2022- y.



2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3 871,4** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʼrsatildi yoki koʼrsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmining **58,0** % ni tashkil qildi va oʼsish surʼati 2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan **112,9** % ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʼp xizmatlar hajmi Navoiy shahri (896,8 mlrd. soʼm), Karmana (627,3 mlrd. soʼm), Xatirchi (426,5 mlrd. soʼm), Zarafshon (464,7 mlrd. soʼm), Qiziltepa (467,4 mlrd. soʼm), Navbahor (312,2 mlrd. soʼm) va Nurota (256,5 mlrd. soʼm) shahar va tumanlar hissasiga toʼgʼri keldi.

### 2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar boʼyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʼsish surʼati




## **2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari**


**2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:**




**Yuk tashishda**



**Yuk aylanmasida**



**Yo'lovchi tashishda**



**Yo'lovchi aylanmasida**

2022- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 8,9 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,4 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 39,1 % ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,7 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 86,8 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,4 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 87,7 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,1 % ni tashkil qildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2022-yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtaida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma da 957 ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 496 (51,8 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 430 (45,0 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholandi. Qolgan 31 (3,2 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholandi.

**2022- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 45,0 % (431 ta), xizmatlar sohasida – 23,7 % (227 ta), sanoatda – 14,0 % (134 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 9,4 % (90 ta), qurilishda – 7,9 % (75 ta) ni tashkil etdi.



- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2022- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Navoiy shahri (226 ta), Karmana (138 ta), Qiziltepa (141 ta), Xatirchi (122 ta) tumani hissasiga to'g'ri keldi.




# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



**2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**



**2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig yaqin 3 oydagisi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2022- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda sohasida 56,0 % ni, xizmatlar sohasida 51,5 %, sanoatda 48,5 % tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda sohasida – 54,7 % ni, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 51,1 % ni, sanoatda sohasida 47,8 % ni tashkil etdi.

2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig **yaqin 3 oydagisi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda sohasida 57,7 % ni, xizmatlar sohasida 55,1 %, sanoatda 50,7 % tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagisi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda sohasida 56,0 % ni, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 48,9 % ni, sanoatda 46,3 % ni, xizmatlar sohasida 55,1 %, tashkil etdi.



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




**2022- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da**

	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiylar aylanmasi</b>	<b>43,2</b>	<b>52,9</b>	<b>3,9</b>
<b>Band bo'lganlar soni</b>	<b>11,0</b>	<b>86,8</b>	<b>2,2</b>
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	<b>27,5</b>	<b>70,2</b>	<b>2,3</b>
<b>Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari</b>	<b>21,3</b>	<b>68,0</b>	<b>10,7</b>
<b>Raqobat muhiti*</b>	<b>39,3</b>	<b>58,5</b>	<b>2,2</b>
	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiylar aylanmasi</b>	<b>45,8</b>	<b>51,4</b>	<b>2,8</b>
<b>Band bo'lganlar soni</b>	<b>19,7</b>	<b>78,1</b>	<b>2,2</b>
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	<b>28,7</b>	<b>68,8</b>	<b>2,5</b>
<b>Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari</b>	<b>22,5</b>	<b>67,5</b>	<b>10,0</b>
<b>Raqobat muhiti*</b>	<b>39,9</b>	<b>57,8</b>	<b>2,3</b>

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



**2022- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da**



**2022- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da**

